

**ALOHIDA TA`LIM EXTIYOJI BULGAN BOLALARGA TALIM - TARBIYA
BERISHDA IJODIY YONDASHUV**

Abdujalilov Farhodjon G‘ani o‘g‘li

Farg‘ona viloyati Marg‘ilon shahar 4-umumiyy

o‘rtta ta’lim makkabining direktori

Yaqubova Odinaxon Anvarovna

Farg‘ona viloyati Marg‘ilon shahar 4-umumiyy o‘rtta

ta’lim makkabining defektologgi, “Do‘stlik” ordeni sohibasi

Annotasiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda joriy qilinayotgan yangi ta’lim tizimi ya’ni inklyuziv ta’lim tizimining takomillashuvi, va bu ta’lim tizimini barcha ta’lim tashkilotlarida joriy qilinganligi, respublikamizda joylashgan ta’lim tizimlaridagi imkoniyati cheklangan bolalarga o‘z tengdoshlari qatorida ta’lim berish va shu bilan bir vaqtida ularning ehtiyoji hamda qobiliyatlariga qarab individual yondoshish, inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish maqsadi va vazifalari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, tarbiya, inklyuziv, rivojlanish, takomillashuv, harakat, inklyuziya, maxsus ta’lim, uyg‘unlashish, nogiron, imkoniyati cheklangan bola.

Ma’lumki, bola ongiga aloqador nogironlik mavjudligi ta’lim borasida sog‘lom bolalar bilan bir xil qobiliyatga ega bo‘lishga yo‘l qo‘ymaydi. Yuqorida tasniflangan metodlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Bizga ma’lumki, inklyuziv ta’limda nogironligi bo‘lgan bolalarga teng huquq va imkoniyatlar tengligini berishdir. Masalan, maktabga sog‘lom bolalarning barchasi borsa, nogiron bolalarning ham imkoniyati borlari to‘la borishi kerak. Chunki inklyuziv ta’limning oiladan, maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlab yo‘lga qo‘yilayotganligi muhim ahamiyatga ega. Bu esa bolaning keyinchalik atrofdagilar bilan muloqotda bo‘lishiga, ijtimoiy muhit talablariga javob bera oladigan va shu bilan birga, kundalik-maishiy ehtiyojini qondirish ko‘nikmalarini erta egallahshlariga, hayotga moslashib, ta’lim muassasalarda tengdoshlari qatori darslarni o‘z vaqtida o‘zlashtirishiga, topshiriqlarga mas’uliyat bilan yondashish ko‘nikmasini egallahshlariga ko‘maklashadi. Biroq inklyuziv ta’limni nafaqat nogiron yoshlar o‘rtasida, balki sog‘lom turmush tarzi mavjud bo‘lgan oiladagi bolalar o‘rtasida, maktabgacha ta’lim muassasalarida, maktablarda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida, oliy o‘quv yurtlarda fanlarni o‘zlashtirish darjasи turlicha bo‘lgan yoshlar orasida ham joriy etish mumkin. Nogironlikni o‘zini uch guruhga ajratish mumkin va 1-2 guruh nogironlarini iloji boricha sog‘lom bolalar bilan yaqinlashtirib, tarbiya jarayonini uyushtirish jamiyatni

sog‘lomlashtiradi, degan xulosaga olib keladi. Bu o‘rinda hozirgi tarbiya jarayoni ayni shu yo‘nalishda borayotganini ko‘ramiz.

Inklyuziv ta’lim bu o‘zi nima? INKLYUZIV - (inklyuziya - inglizcha [inclusion] - uyg‘unlashish) Hamkorlikdagi ta’lim bo‘lib, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng samarali, eng insonparvar ta’lim sifatida tan olingan. Imkoniyati cheklangan bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlariga sog‘lom tengdoshlari bilan birga ta’lim olishidir. Inklyuziv ta’lim pedagog xodimlar va ota-onalar tomonida ta’lim jarayoniga ijodiy yondashuvni o‘zida aks ettiradigan tabiiy jarayon hisoblanadi.



INKLYUZIV TA’LIM -IMKONIYATI
CHEKLANGAN BOLALARNI
MAKTABLARDA SOG’LOM
TENGDOSHLARI BILAN BIRGA TA’LIM
OLISHI



Inklyuziv ta’lim rasmiy ta’lim tushunchasidan ancha kengroq. Bu ta’limda ko‘proq o‘qishda, o‘rganishda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlanadi. Inklyuziv bog‘chada tarbiyachi qanday sifatlarga ega bo‘lish kerak? Inklyuziv ta’limda o‘qituvchining kasbiy mahorati bosh omil hisoblanadi. Avvalo, o‘qituvchi inklyuziv taffakkurga ega bo‘lishi va ta’lim sifati ma’suliyatini o‘z zimmasiga olishi shart.



Inklyuziv ta'limga oiladan maktabgacha ta'limga muassasalarida, umumta'limga muktablarida, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv muassasalarida joriy etish natijasida alohida ehtiyoji bor insonlarga nisbatan umumiyligini munosabat o'zgarayotgani ma'lum bo'ldi. Bu esa ularning hayotda muvaffaqiyat qozonishi uchun omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Inklyuziv ta'limga imkoniyati cheklangan bolalarga umumta'limga jarayonidagi barcha tadbirlarda faol va muntazam ishtirok etish imkonini beradi. Buning natijasida stereotiplar shakllanishining oldi olinib, ko'rsatiladigan individual yordam imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatdan ajratib qo'ymaydi. Ular olgan ko'nikmalarini umumlashtirish imkoniga ega bo'lishadi. Imkoniyati cheklangan insonlar uchun ishlab chiqilgan va jamiyatga rejali asosda joriy etilayotgan inklyuziv ta'limga strategiyasi o'qishning uzluksiz va muttasilligini ta'minlaydi. Oila – bolalar bog'chasi – maktab – kasb-hunar kolleji – ish bilan ta'minlash – ushbu tizim kelajakda ota-onalarga imkoniyati cheklangan bolalarini umumta'limga muassasalarini va oliy o'quv yurtlariga bemalol, xavfsiramasdan olib kelishlari uchun zamin yaratadi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida 2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiysi ishlab chiqildi.

Bu konsepsiya alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha quyidagi vazifalar belgilandi:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo'yicha mutaxassislar) bilan ta'minlash;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta'minlash va boshqalar.

Inklyuziv ta'lif berish o'qituvchilar ishi sifatining asosiy mezonlari - o'qituvchi o'quvchilarning turli toifada ekanligiga qaramay barcha bolalarning huquqini himoya va hurmat qilishi Yana bir sifat - hamkorlikni yo'lga qo'yish. Chunki o'qituvchilar uchun hamkorlik va o'zaro fikr almashish muhimdir. O'qituvchi o'z faoliyatini tizimli baholab borishi, muntazam malakasini oshirishi, alohida ta'lif ehtiyojlari bor bolalarning intizomli va muassasalararo guruhlar bilan samarali ishlashi uchun liderlik hamda boshqaruv malakalarini qo'llash, muammolarni birgalikda hal qilish, keng qamroqli maktab hamkorligini yo'lga qo'yish kabi xislatlarga ega bo'lish kerak.



Inklyuziv ta'lifda imkoniyati cheklangan bolalarga nima beradi?

- o'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etish imkonini beradi
- mustaqil harakatlanish birgalikda, hamkorlikda ishlash imkoniyati orqali yuzaga keladi;
- dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;
- o'qishga bo'lgan ehtieji va qiziqishlari ortadi;
- o'zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi;
- ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi;
- yotsirash, yakkalanish kabi xususiyatlari yo'qoladi.

Inklyuziv ta'lif vazifasi bolalarning qobiliyatları va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatlari ta'lif taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobjiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi.

Ma'lumki, inklyuziv ta'lifda maxsus ta'lif ehtiyojidagi bolalar barcha bolalar bilan birga ma'lum maqsadda turli qobiliyatlarga muvofiq guruhlashtiriladi. Maxsus

ta'lism aqliy, jismoniy tashqi ko'rinishga muvofiq amalga oshirilsa, inklyuziv ta'lism bolaning qobiliyati va imkoniyatlariga ko'ra belgilanadi. Maxsus ta'lism o'qitishning maxsus va alternativ dasturlari orqali o'qitilsa, inklyuziv ta'lism bolaga yo'naltirilgan va moslashtirilgan, yo'riqnomali, barchaga mo'ljallangan o'quv dasturi asosida o'qitiladi. Inklyuziv ta'limgning o'ziga xos muhim jihat shundaki, bolalar va o'qituvchi bir -birlaridan o'rganishadi hamda muammolarni birgalikda xal etishadi.

INKLYUZIV TA'LIMDA O'QITUVCHIGA TAVSIYA



O'QUV MATERIALINI IMKONIYATI CHEKLANGAN
O'QUVCHINING QABUL QILISH DARAJASIDA BERADI



O'QUVCHILARNING BARCHA ANALIZATORIGA
TA'SIR QILGAN HOLDA ISH OLIB BORADI



O'QUV JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA
INTERFAOL USULLARNI QO'LLAYDI

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'lism tizimida inklyuziv ta'limgning ahamiyati shundaki, imkoniyati cheklangan bolalarni ilk yoshlaridanoq sog'lom bolalar qatoriga qo'shib sifatli ta'lism olishini ta'minlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va haraktlarini rivojlantirishdir. Nuqsoni bor bolalarni har tomonlama tarbiyash orqali ularni ona-Vatanga, tabiatga nisbatan go'zallikni his etishga, tafakkurini rivojlantirishga, bolalarning talab-ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lism to'g'risida" gi Qonuni O'RQ-637-coh 23.09.2020.
3. Muzaffarova, X. (2021). INKLYUZIV TA'LIMNI AMALIYOTGA JORIY QILISH MASALALARI. Scienceweb academic papers collection.
4. Muzaffarova, X. (2021). MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHDA KORREKSION METODLARINING MOHIYATI. Scienceweb academic papers collection.
5. Muzaffarova, X. (2021). BOLALAR PSIXIKANING RIVOJLANISHINI BELGILAYDIGAN OMILLAR. Scienceweb academic papers collection.
6. Muzaffarova, X. (2020). MAXSUS YORDAMGA MUHTOJ BOLALARNI TA'LIMGA JALB ETISHDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR. Scienceweb academic papers collection.